



O'QUVCHI YOSHLARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATUVCHI INTERFAOL METODLAR VA ULARNI QO'LLASH YO'LLARI

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq ta'lim yo'nalishi

3-kurs 1-22 guruh talabasi

Qalandarova Ra'no

Suvonov Ruslan

Aliyeva Laziza

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limga oid ayrim masalalar va ularni amaliyatga qo'llash haqida tushuncha va tamoyillar yoritib berilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasi va ta'limga oid qarorlari qonunlar qabul qilinib davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Maktabdan oliy ta'limga qadam qo'yayotgan yoshlar albatta oliy ta'limda mukammal va jiddiy bilim olishlari shart. Talabalarga ta'lim berishda ularga hayotiy va ilmiy, amaliy ko'nikmalarini berish ko'proq dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar Metod, Pedagogika, Psixologiya, Eksperimental, Anketa, Matematik-statistik, Modernizatsiya, Intensifikatsiya.

Kirish Bugungi kunda yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Zero, har qanday jamiyat o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, kechagi kuni, bugun va ertasi haqida xolis mushohada yurita oladigan fuqarolar bilangina rivojlanadi. Ma'lumki, insonning fikrlash qobiliyati, tafakkur doirasi qanchalik keng va mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor, izlanuvchan, yangiliklarni qabul qilishga hamda yangi g'oyalarni yaratishga qobiliyatli bo'ladi. Shu boisdan ham mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil mushohada yuritishga, erkin tarzda ijodiy fikrlashga o'rgatish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylanib, yuksak ma'naviy fazilatlarga, ijodiy fikrlash qobiliyati va o'zining mustaqil yondashuviga ega bo'lgan, erkin, sog'lom e'tiqodli shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyoti, milliy



farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to'plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqlolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bilan birga hozirgi kunda bir qator rivojlangan Davlatlarda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda turli xil texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar hozirgi kunda interfaol metodlar deb yuritilmoxda. Interfaol metodlar bugungi kunda eng ko'p tarqalgan va barcha ta'lim muassalarida keng qo'llanilayotgan yangi texnologiya hisoblanadi. Interfaol metodlarni qo'llashda darsnihg mohiyatidan didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq.[1]

Tahlil va natijalar

Tarbiya fanida intervyu metodi. Oldindan belgilangan savollar yordamida izchil qo'yilgan savolga javob olish tushuniladi. Bunda javoblar turli texnik vositalarda (telefon, fleshka) yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu metodini tashkil etishning quyidagi usullaridan foydalilaniladi: Guruhiy,sinfiy, standardlash, intensiv kabilar bunda o'quvchilarni ijodini o'rganish, ularning individual faoliyatlariga doir masalalar o'rganiladi va tahlil qilinadi. Anketa metodi, yozmasovollarga javoblarni ommaviy amalgalashni nazarda tutadi. Anketalarni ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayondir. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketa mazmunidagi savollarning puxtaligiga bog'liq.[2] Hozirgi davr tarbiya fanining talablariga ko'ra ma'lumotlarni EHMda qo'llab matematik-statistika metodlari bilan ishslashga imkon beradigan qilib tuziladi. Tarbiya» fanida matematika va kibernetika usullari ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotdagi ma'lumotlar, ularning rivojlanish darajasini hisoblash mashinasi va kibernetikasi yordamida turli tillarda tarjima qilinishi dasturlashtirilgan ta'lim va uni mashinalar yordamida boshqarish, kompyuterli ta'lim samaradorligini aniqlash,



differensial va individual ta'larning mohiyati, mahsuldarligini va maktab o'quvtarbiya jarayonining o'sish darajasini aniqlash texnikalar yordamida amalgalashirilishini nazarda tutadi. Darslarni zamonaviy yondashuv va zamonaviy metodlar bilan tashkil qilish o'qituvchida ko'nikma va malaka oshishi kuzatiladi, o'quvchida esa darsga nisbatan qiziqish bilim va xulosaga ega bo'lish jarayonini ko'rish mumkin. Chunki, XXI asr yosh avlod vakillari darsning nazariy tashkil qilinishida zerikish qiziqmaslik holatlar mavjud. Ta'limga tor ma'noda- o'qitish tushunchasini beradi. [3]

Demak, ta'limga bu – bilim berish va malaka ko'nikmalarini hosil qilish jarayoni. Malaka bu - o'zlashtirilgan bilimni notanish joylarda qo'llay bilish. Ko'nikma esa o'zlashtirilgan bilimni tanish joylarda qo'llay bilish jarayonidir. Ta'limga va tarbiya kishilarni hayotga va mehnatga tayyorlab borishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya – shaxs ongini jamiyatning maqsad vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni. Tarbiya shaxsning individual ta'limga rivojlantirish taraqqiyoti, ahloqiy, aqliy, estetik, ma'naviy, jismoniyligi, kamolotida yetakchi rol o'ynaydi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan ma'lumki, mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga o'sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy fikr yuritish salohiyatini rivojlantirishni o'ni alohida ahamiyatga ega. Shunig uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlab kunlardanoq yosh avlodda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakillantirishning tashkiliy huquqiy jihatlariga alohida e'tibor qaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'limga sohasida e'tibor juda yuqori va davlat siyosat darajasiga ko'tarilgan.[4]

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida eng samaralisini tanlash dars beruvchiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi interfaol metodlar, ularning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, shuningdek, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday metodlar orasida muammoli o'qish, kichik guruhlar va diskussiyalar, rolli o'yinlar, kreativ yozuv va boshqa metodlar mavjud. Ushbu metodlar o'quvchilarga g'oyalarini erkin ifodalash va tanqidiy fikrlashni



o'rgatadi. Shu tarzda, ijodiy fikrlash o'qish va o'rganish jarayonida rivojlanadi, o'quvchilarga yangi bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Interfaol metodlar o'quvchilarning o'quv materialini chuqurroq tushunishlari va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Avlayev O.U, Jo'rayeva S.N, Mirziyoyeva S.P. "Ta'lif metodlari" O'quv uslubiy qo'llanma . "Navruz" nashriyoti, Toshkent -2017-yil.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S "Ilg'or pedagogik texnologiyalar " Toshkent – 2004
- 3.Ochilov M. " Yangi pedagogik- texnologiyalar" Qarshi-2000 yil
- 4.G. B . Saidnazarova . "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" Buxoro – 2024 yil